4/2026, may-iyun (№ 00083)

MILLIY IQTISODIYOTDA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Bobonov N.X.
O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya
Maqolada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini passiv kompensatsiya yondashuvidan faol, investitsion yondashuvga o‘tkazish yo‘nalishlari tadqiq etilgan. «Aholini ijtimoiy himoya qilish» tushunchasining iqtisodiy mazmuni takomillashtirilgan va ijtimoiy himoya institutlariga mualliflik ta’rifi berilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga olgan ish beruvchilar xarajatlarini qoplash, kvazibozor asosida ularni uyda ishlash kasblariga o‘qitish hamda kambag‘al oilalar xonadoniga quyosh panellari o‘rnatib, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini xarid qilish takliflari asoslangan. Quyosh panelining oila daromadiga qo‘shuvchi yillik samarasi taxminiy hisoblangan.
Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy investitsiya, kvazibozor, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kambag‘allik, passiv daromad, quyosh energiyasi.

Аннотация
В статье исследуются направления перехода системы социальной защиты населения от пассивной компенсационной модели к активной инвестиционной. Уточнено экономическое содержание понятия «социальная защита населения» и предложено авторское определение институтов социальной защиты. Обоснованы возмещение затрат работодателей, принимающих на работу лиц с инвалидностью I и II групп, обучение лиц с инвалидностью профессиям для надомной работы на квазирыночной основе, а также установка солнечных панелей в домохозяйствах малообеспеченных семей с выкупом произведённой электроэнергии. Выполнена ориентировочная оценка годового экономического эффекта солнечной установки для семьи.
Ключевые слова: социальная защита, социальные инвестиции, квазирынок, лица с инвалидностью, бедность, пассивный доход, солнечная энергия.

Abstract
The article explores how the social protection system can move from a passive compensatory model to an active, investment-oriented one. It refines the economic content of the concept of social protection and offers the author's definition of social protection institutions. Three proposals are substantiated: reimbursing the costs of employers who hire persons with Group I and II disabilities, training persons with disabilities in home-based occupations on a quasi-market basis, and installing solar panels in poor households with state purchase of the electricity they generate. The annual economic effect of a household solar system for a poor family is estimated.
Keywords: social protection, social investment, quasi-market, persons with disabilities, poverty, passive income, solar energy.

Kirish

Makroiqtisodiy beqarorlik va global o‘zgarishlar sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish har bir davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Jahon tajribasi ijtimoiy himoya samaradorligi ajratilayotgan transfert va subsidiyalar hajmi yoki qamrov kengligi bilan o‘lchanmasligini ko‘rsatadi. Uning asosiy mezoni ehtiyojmand qatlamlarni passiv yordam oluvchidan mehnat bozoriga qo‘shilgan, inson kapitali boyitilgan va mustaqil daromadga ega iqtisodiy subyektga aylantirish imkoniyatidir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini institutsional qayta qurish bo‘yicha keng islohotlar amalga oshirildi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra kambag‘allik darajasi 2024-yilda 8,9 foizni, 2025-yilda 5,8 foizni tashkil etdi[1]. 2025-yil 26-dekabrdagi PF-258-son Farmon bilan yagona ijtimoiy reyestr joriy etilib, kam ta’minlangan oilaga nafaqa berish mehnatga layoqatli a’zoning bandligi bilan bog‘landi[2]. Shunga qaramay ijtimoiy yordam dasturlari qamrovi bilan faol mehnat bozori dasturlari o‘rtasida nomutanosiblik saqlanib qolmoqda.

Bu holat ijtimoiy transfertlarni oddiy iste’mol xarajati sifatida emas, inson kapitali va barqaror bandlikka yo‘naltirilgan institutsional investitsiya sifatida qayta talqin etishni talab qiladi. Maqolaning maqsadi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini faol va investitsion asosda takomillashtirish yo‘nalishlarini nazariy jihatdan asoslash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligi va kambag‘al oilalar uchun mustaqil daromad manbalarini shakllantirish masalalariga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishga oid zamonaviy tadqiqotlar bir necha nazariy konsepsiyaga tayanadi. Ularning har biri davlat, bozor va uy xo‘jaligi o‘rtasidagi munosabatlarning muayyan jihatini yoritadi.

Yangi davlat boshqaruvi (New Public Management) konsepsiyasi davlat sektori va ijtimoiy xizmatlar boshqaruviga xususiy sektorning samarali menejment usullari hamda bozor mexanizmlarini tatbiq etishni ilgari suradi. Kristofer Xud (Christopher Hood) bu yondashuvning asosiy belgilari sifatida natija ko‘rsatkichlariga tayanish, raqobat va xizmatlarni mustaqil bo‘linmalarga ajratishni ko‘rsatgan (Hood, 1991). Ijtimoiy investitsiyalar nazariyasi (Social Investment Perspective) ijtimoiy himoya xarajatlarini passiv iste’mol yoki kompensatsiya sifatida emas, kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy daromad beruvchi inson kapitaliga qo‘yilgan sarmoya sifatida baholaydi (Morel et al., 2012; Hemerijck, 2017). Bu qarashda ijtimoiy siyosat iqtisodiy o‘sishning yuki emas, uning omili sanaladi.

Davlat va ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xususiy subyekt o‘rtasidagi munosabatlar «Principal-Agent» nazariyasi orqali tushuntiriladi. Maykl Jensen (Michael Jensen) va Uilyam Mekling (William Meckling) manfaatlar mos kelmagan va axborot asimmetrik bo‘lgan sharoitda natijaga bog‘langan shartnomalar agentlik xarajatlarini kamaytirishini ko‘rsatgan (Jensen & Meckling, 1976). Vaucherli moliyalashtirish konsepsiyasi (Demand-side Financing) mablag‘ni muassasaga emas, iste’molchiga vaucher yoki sertifikat shaklida berib, xizmat

[1]Kambag‘allik darajasi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar: https://gov.uz/oz/bv/news/view/34849; https://uz.kursiv.media/uz/2025-12-26/ozbekistonda-kambagallik-darajasi-58-foizga-tushib-reja-muddatidan-avval-bajarildi/amp/

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-258-son Farmoni. https://www.advice.uz/oz/document/4488; nafaqa shartlari bo‘yicha: https://anhor.uz/uzl/news/kam-taminlanganlar-uchun-nafaqalar-oiladagi-bandlikka-bogliq-boladi/

oluvchiga erkin tanlov huquqini taqdim etadi. Milton Fridman (Milton Friedman) bu g‘oyani ta’limni moliyalash misolida birinchilardan bo‘lib asoslagan (Friedman, 1955).

Ushbu yondashuvlarni yagona tizimga keltiruvchi platforma sifatida kvazibozor (quasi-market) nazariyasi ajralib turadi. Julian Le Grand (Julian Le Grand) kvazibozorni davlat moliyalashni saqlagan holda xizmat ko‘rsatishda mustaqil provayderlar o‘rtasida raqobat yaratuvchi mexanizm sifatida ta’riflagan (Le Grand, 1991). Bunday tizim davlatning ijtimoiy kafolatlarini saqlab qoladi va xususiy sektorning tezkor moslashuvchanligini rag‘batlantiradi (Le Grand, 2007).

Kambag‘allikni qisqartirishda aktivlarga asoslangan yondashuv alohida o‘rin tutadi. Maykl Sherraden (Michael Sherraden) kambag‘al oilalarning daromadi bilan birga aktivlarini shakllantirish uzoq muddatli farovonlik uchun hal qiluvchi ekanini asoslagan (Sherraden, 1991). Abxijit Banerji (Abhijit Banerjee) va hammualliflar olti mamlakatdagi tajribada eng kambag‘al oilalarga mahsuldor aktiv berish va ularni qo‘llab-quvvatlash iste’mol va daromadning barqaror o‘sishiga olib kelganini aniqlagan (Banerjee et al., 2015). Robert Moffitt nafaqa dasturlarining mehnat taklifiga ta’sirini tahlil qilib, daromad ortishi bilan nafaqaning keskin kesilishi mehnat qilishga rag‘batni pasaytirishini ko‘rsatgan (Moffitt, 2002). Devid Kard (David Card), Yoxen Kluve (Jochen Kluve) va Andrea Veber (Andrea Weber) faol mehnat bozori dasturlarining meta-tahlilida inson kapitalini oshiruvchi dasturlar samarasi qisqa muddatda kichik bo‘lsa-da, ikki-uch yildan keyin sezilarli darajada ortishini aniqlagan (Card et al., 2018).

An’anaviy yondashuvda ijtimoiy himoya asosan passiv budjet transfertlari va bir martalik nafaqalar orqali kambag‘allikni kamaytirish vositasi sifatida talqin etilgan. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi bu qarashni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi bosqichda ijtimoiy himoya inson kapitalini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish va uy xo‘jaliklarining iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashning institutsional omiliga aylanmoqda. Tadqiqotda shu yo‘nalishda quyidagi nazariy natijalar olindi.

Shu nuqtai nazardan, «aholini ijtimoiy himoya qilish» tushunchasining iqtisodiy mazmuni ijtimoiy xatarlarni kompensatsiyalash, inson kapitalini takror hosil qilish va daromad yaratish salohiyatini faollashtirish orqali passiv ijtimoiy himoya usulidan barqaror iqtisodiy mustaqillikni ta’minlovchi faol ijtimoiy himoyaga o‘tish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan.

Ushbu mualliflik yondashuvining nazariy-uslubiy o‘ziga xosligi ijtimoiy himoyaning kompensatsion va rivojlantiruvchi funksiyalarini o‘zaro uyg‘unlashtirish, inson kapitalini takror ishlab chiqarishni uning ichki iqtisodiy mexanizmi sifatida talqin etish, daromadlarni qayta taqsimlashdan daromad yaratish salohiyatini faollashtirishga ustuvorlik berish, aholining iqtisodiy subyektligini kuchaytirish hamda ijtimoiy zaiflikdan iqtisodiy mustaqillikka o‘tishni strategik natija sifatida belgilashda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, “aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari” kategoriyasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, ular “aholini passiv nafaqa oluvchidan mustaqil iqtisodiy daromad keltiruvchi resurs egasiga aylantirish, ijtimoiy-iqtisodiy tavakkalchiliklarni neytrallashtirish hamda resursdan foydalanishda manzillilikni ta’minlash maqsadida davlat, bozor va uy xo‘jaligi sektorining o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar, qadriyatlar va tashkiliy-infratuzilmaviy mexanizmlar majmui”dir. Bu o‘z navbatida, ijtimoiy himoya institutlarini faqat davlat budjetining qayta taqsimot tizimi bilan cheklab

qo‘ymasdan, ularni manzilli va daromad keltiruvchi dasturlar hamda mahalla darajasidagi mikro-institutsional tuzilmalar bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi.

Passiv va faol yondashuvlarning asosiy farqlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

An’anaviy va faol ijtimoiy himoya yondashuvlarining qiyosiy tavsifi

Mezon	An’anaviy passiv yondashuv	Faol investitsion yondashuv
Asosiy maqsad	Daromad yo‘qotish xavfini vaqtincha qoplash	Iqtisodiy mustaqillikka o‘tishni ta’minlash
Asosiy vosita	Nafaqa, bir martalik moddiy yordam, subsidiya	Inson kapitaliga investitsiya, bandlik, daromad keltiruvchi aktiv
Mablag‘ning iqtisodiy tabiati	Qaytmas joriy iste’mol xarajati	Kelajakda daromad beruvchi ijtimoiy investitsiya
Oluvchining maqomi	Passiv nafaqa oluvchi	Faol iqtisodiy subyekt, resurs egasi
Samaradorlik mezoni	Qamrov va transfert hajmi	Mustaqil daromadga chiqqanlar ulushi
Asosiy ishtirokchilar	Davlat	Davlat, xususiy sektor, uy xo‘jaligi, mahalla

Manba: muallif ishlanmasi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli va institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda iqtisodiy hisob-kitob usullaridan foydalanildi. Empirik asos sifatida Milliy statistika qo‘mitasi va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tadqiqotlar natijalari olindi. Quyosh panelining oila daromadiga ta’siri rasmiy tariflar va mamlakatdagi quyosh radiatsiyasi ko‘rsatkichlari asosida taxminiy hisoblandi.

Tahlil va natijalar

Islohotlar natijasida ijtimoiy himoya tizimi faol yondashuv tomon siljiy boshladi. PF-258-son Farmonga ko‘ra 2026-yil 1-fevraldan yagona ijtimoiy reyestr ishga tushirildi va oilalar davlat ta’minotidagi, kambag‘al hamda kambag‘allik chegarasidagi oilalar toifalariga ajratildi. Jon boshiga daromadi minimal iste’mol xarajatlaridan 1–1,5 baravar yuqori oilalarga nafaqa 75 yoki 50 foiz miqdorida saqlanadi[3]. Bu chora daromad ortishi bilan nafaqaning birdan to‘xtatilishi va mehnatga rag‘bat susayishining oldini olishga qaratilgan. Minimal iste’mol xarajatlari 2025-yilda bir kishi uchun oyiga 669 ming so‘mni, 2026-yilda 715 ming so‘mni tashkil etdi[4].

Faol yondashuvga eng ko‘p muhtoj guruhlardan biri nogironligi bo‘lgan shaxslardir. 2025-yilda mamlakatda 1063,1 ming nafar nogironligi bo‘lgan shaxs hisobda turgan bo‘lib,

[4]Statistika organining 2026-yil 5-martdagi ma’lumoti. https://www.spot.uz/oz/2026/03/05/minimal-consumption-costs/

ularning 809,9 ming nafari yoki 76,2 foizi I va II guruhga mansub (2-jadval)[5]. Aynan shu guruhlar mehnat bozoriga kirishda eng katta to‘siqlarga duch keladi.

2-jadval

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar tarkibi, 2025-yil

Ko‘rsatkich	Ming kishi	Jamiga nisbatan, foiz
Nogironligi bo‘lgan shaxslar, jami	**1063,1**	**100,0**
shu jumladan nogironligi bo‘lgan bolalar	170,4	16,0
I guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar	97,3	9,2
II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar	712,6	67,0
III guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar	82,8	7,8
Nogironlik pensiyasini oluvchilar	493,9	46,5

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini rag‘batlantirish

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat huquqlari 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonun bilan kafolatlangan. Amaliyotda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi pastligicha qolmoqda. Ish beruvchi uchun ish joyini moslashtirish, maxsus shart-sharoit yaratish va kasbiy ko‘nikma berish qo‘shimcha xarajat talab qiladi. Bu xarajatlar bandlik yo‘lidagi institutsional to‘siqqa aylanadi.

Davlat bu to‘siqni kamaytirish choralarini ko‘rmoqda. 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmonga ko‘ra 2025-yil 1-iyundan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga olgan tadbirkorlarga imo-ishora tili tarjimoni, psixolog va hamrohlik xizmatlari xarajatlari uchun 50 mln so‘mgacha subsidiya ajratilmoqda[6]. 2025-yil oxirigacha 80 ming nafar nogironligi bo‘lgan shaxsning barqaror bandligini ta’minlash maqsad qilingan. Biroq e’lon qilingan shartlarda ish joyini moslashtirish va kasbiy tayyorlash xarajatlari subsidiya qamroviga kiritilmagan. Ijtimoiy investitsiyalar konsepsiyasi nuqtai nazaridan bu xarajatlarni ham tizimli asosda qoplash zarur. Shu asosda quyidagi ilmiy taklif ishlab chiqildi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy investitsiyalar konsepsiyasiga ko‘ra, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishga ish beruvchilarning I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilish hamda ularga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarini davlatning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplab berish tizimini joriy qilish orqali erishiladi.

Mazkur yondashuv qoplanayotgan mablag‘ni passiv kompensatsiya yoki bir martalik moliyaviy ko‘mak sifatida emas, inson kapitaliga kiritilgan uzoq muddatli ijtimoiy investitsiya sifatida baholash imkonini beradi. U ish beruvchining ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi. Nogironligi bo‘lgan shaxs vaqtinchalik nafaqa oluvchidan mustaqil daromadga ega iqtisodiy faol subyektga aylanadi.

[5]Milliy statistika qo‘mitasi, 2026-yil 30-iyundagi press-reliz. https://stat.uz/img/news/izhtimoij-khimoya-lotin_p50370.pdf

[6]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmoni. https://anhor.uz/uzl/news/1-iyundan-nogironligi-bo-lgan-shaxslarni-ishga-qabul-qilgan-tadbirkor/; https://buxgalter.uz/oz/publish/doc/text208310_pf-85-son_farmon_buyicha_imtiezlardan_kimlar_foydalana_oladi

Kvazibozor asosida uyda ishlash kasblariga o‘qitish

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bir qismi uchun doimiy ish joyiga qatnash jismonan qiyin. Raqamli iqtisodiyot ularga uy sharoitida masofadan ishlash imkonini beradi, lekin buning uchun zamonaviy kasbiy ko‘nikma kerak. Davlat o‘qitish xizmatini o‘zi ko‘rsatishi yoki uni xususiy provayderlardan sotib olishi mumkin. Kvazibozor nazariyasi ikkinchi yo‘lni afzal ko‘radi, chunki raqobat xizmat sifatini oshiradi va davlat moliyalovchi hamda nazoratchi vazifasini saqlab qoladi. Shu mantiq asosida ikkinchi ilmiy taklif ilgari surildi.

Bizning fikrimizcha, kvazibozor nazariyasiga asoslangan tizimli yondashuvga ko‘ra, resupblikada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini nogironligi bo‘lgan shaxslarni uy sharoitida mehnat qilish imkonini beruvchi zamonaviy kasblarga o‘qitish xizmatlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlarining barcha xarajatlari va marjasini davlatning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplab berish yo‘li bilan davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirish lozim.

Taklif etilgan mexanizmda Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘i o‘qitish jarayonining o‘zini emas, aniq iqtisodiy natijani moliyalaydi. Bu natija nogironligi bo‘lgan shaxsning mustaqil daromadga chiqishidir. Natijada xususiy ta’lim provayderi bitiruvchining frilans yoki masofaviy bandlik platformalarida o‘rin topishi, buyurtma ola boshlashi va barqaror daromadga ega bo‘lishigacha unga hamrohlik qilishdan manfaatdor bo‘ladi. Budjetdan tashqari jamg‘arma mablag‘i passiv kompensatsiya emas, ijtimoiy investitsiya sifatida ishlaydi va uning manzilliligi ortadi. Nogironligi bo‘lgan shaxs davlat nafaqasiga qaram iste’molchidan raqamli va uyda bajariluvchi kasblarni egallagan, o‘z daromadini o‘zi yaratuvchi faol iqtisodiy subyektga aylanadi.

Kambag‘al oilalar uchun passiv daromad manbaini shakllantirish

Kambag‘allikni qisqartirish daromadi minimal iste’mol darajasidan past oilalarga fiskal transfert va kompensatsiya ajratishni talab qiladi. Biroq demografik o‘sishi yuqori mamlakatlar tajribasi nafaqa va bir martalik yordamga tayangan tizim bir qator ziddiyatlarni keltirib chiqarishini ko‘rsatadi. Birinchisi rag‘bat bilan bog‘liq. Oila daromadi kambag‘allik chegarasidan ozgina oshsa, nafaqadan mahrum bo‘lish xavfi tug‘iladi va uy xo‘jaliklari rasmiy sektorda ishlashdan qochishi yoki yashirin iqtisodiyotga o‘tishi mumkin. Ikkinchisi fiskal barqarorlik bilan bog‘liq, chunki nafaqa budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalar uchun qaytmas iste’mol xarajatidir. Uchinchisi aktiv yo‘qligidir. Oylik nafaqa to‘liq joriy iste’molga sarflanadi va oila daromad keltiruvchi aktivga ega bo‘lmaydi.

Shu sababli kambag‘al oilalarga iste’mol manbaini emas, mustaqil daromad keltiruvchi aktivni berish maqsadga muvofiq. Mehnatga layoqatli a’zolar mehnat bozoriga jalb etilishi kerak. Mehnat layoqati cheklangan, qaramog‘ida ko‘p a’zosi bor yoki qishloqda yashovchi oilalar uchun kafolatlangan passiv daromad manbai shakllantirilishi lozim. Ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha uchinchi ilmiy taklif ishlab chiqildi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy farovonlik nazariyasiga muvofiq, respublikada kambag‘al oilalarni ijtimoiy himoya qilishning faol usulini davlat tomonidan ular uchun passiv daromad manbalarini yaratish, ya’ni ular xonadoniga quyosh panellarini o‘rnatish va ishlab chiqarilgan elektr energiyasini xarid qilish tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan.

Taklifning ishlash mexanizmi davlat, energetika korxonalari va kambag‘al uy xo‘jaliklari o‘rtasidagi uch tomonlama munosabatlarga tayanadi va to‘rt bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda «Ijtimoiy himoya yagona reyestri»ga kiritilgan kambag‘al oilalar

xonadoniga davlat budjeti, Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi va xalqaro yashil moliyalash grantlari hisobidan 3 kVt dan 5 kVt gacha quvvatli quyosh fotoelektr panellari va inverter bepul yoki uzoq muddatli foizsiz subsidiya asosida o‘rnatiladi. Oila «mikro-elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi» maqomini olib, moliyaviy aktiv egasiga aylanadi. Ikkinchi bosqichda panellar kunduzi xonadonning maishiy elektr ehtiyojini qoplaydi va oylik kommunal xarajat nolga yaqinlashadi. Uchinchi bosqichda ortiqcha energiya umumiy tarmoqqa uzatiladi. «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ uni kafolatlangan tabaqalashtirilgan oshirilgan tarif bo‘yicha sotib oladi va mablag‘ har oy oila boshlig‘ining «Ijtimoiy karta»siga o‘tkaziladi. To‘rtinchi bosqichda oila idoralarga murojaat qilmasdan va qo‘shimcha mehnat sarflamasdan barqaror oylik passiv daromadga ega bo‘ladi. Bu daromad nafaqadan farqli o‘laroq oilaning o‘z aktivi yaratgan iqtisodiy mahsulotdir.

Taklifning oila daromadiga ta’sirini taxminiy hisoblaymiz (3-jadval). Mamlakatda gorizontal sirtga tushuvchi quyosh radiatsiyasining median qiymati sutkasiga 4,52 kVt·soat/m² ga teng[7]. Tizimning foydali ish koeffitsiyenti 0,8 deb olinsa, 1 kVt quvvat yiliga taxminan 1300 kVt·soat elektr energiyasi beradi. Oilaning kunduzgi o‘z iste’moli oyiga 100 kVt·soat deb qabul qilindi va tejalgan energiya aholi uchun birinchi pog‘ona tarifi bo‘yicha, ya’ni 650 so‘mdan baholandi[8]. Ortiqcha energiya «Quyoshli xonadon» dasturidagi 1000 so‘mlik stavka bo‘yicha hisoblandi[9].

3-jadval

Quyosh panelining kambag‘al oilaga yillik iqtisodiy samarasi (taxminiy hisob)

Ko‘rsatkich	3 kVt	5 kVt
Yillik ishlab chiqarish, kVt·soat	3900	6500
Oilaning kunduzgi o‘z iste’moli, kVt·soat	1200	1200
Tarmoqqa uzatilgan ortiqcha energiya, kVt·soat	2700	5300
Elektr to‘lovidan tejash, ming so‘m	780	780
Energiya sotishdan tushum, ming so‘m	2700	5300
Jami yillik samara, ming so‘m	**3480**	**6080**
O‘rtacha oylik samara, ming so‘m	**290**	**507**
Bir kishilik minimal iste’mol xarajatiga nisbati, foiz	40,6	70,9

Manba: IEA ma’lumotlari, Vazirlar Mahkamasining 243-son qarori va «Quyoshli xonadon» dasturi shartlari asosida muallif hisob-kitobi.

Hisob-kitobga ko‘ra 3 kVt quvvatli tizim bir kishining oylik minimal iste’mol xarajatining qariyb 41 foizini, 5 kVt quvvatli tizim qariyb 71 foizini qoplay oladi. Taklifda nazarda tutilgan oshirilgan tarif qo‘llansa, bu ko‘rsatkich yanada ortadi. Hisob taxminiy xarakterga ega bo‘lib, panel narxi, texnik xizmat xarajatlari va tarmoq cheklovlari alohida baholanishi kerak.

[7]IEA. Solar Energy Policy in Uzbekistan: A Roadmap. https://www.iea.org/reports/solar-energy-policy-in-uzbekistan-a-roadmap

[8]Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 15-maydagi 243-son qarori. https://buxgalter.uz/oz/publish/doc/text215123_uzbekistonda_2026_yil_1_iyundan_elektr_energiyasi_va_tabiiy_gaz_uchun_qanday_tariflar_belgilandi

[9]https://www.spot.uz/oz/2026/02/02/solar-energy/; https://uza.uz/ar/posts/ozbekistonda-quyosh-panellari-ornatganlarga-3308-milliard-somdan-ziyod-subsidiya-berildi_889237

Bu yo‘nalishda davlat siyosati ham faollashmoqda. «Quyoshli xonadon» dasturi doirasida 2023-yil 1-apreldan tarmoqqa uzatilgan ortiqcha elektr energiyasining har bir kVt·soati uchun 1000 so‘m subsidiya to‘lanmoqda. 2025-yilda 45,4 ming fuqaroga 209,2 mlrd so‘m, 2026-yilning birinchi yarmida 68,6 ming fuqaroga 330,8 mlrd so‘m subsidiya berildi[10]. 2026-yil 1-fevraldan davlat ta’minotidagi oilalarga 7–10 kVt quvvatli quyosh panellarini o‘rnatish uchun 41,1 mln so‘mgacha subsidiya ajratish belgilandi[11]. Taklif etilayotgan mexanizm bu choralardan uch jihati bilan farq qiladi. U ijtimoiy reyestrdagi barcha kambag‘al oilalarni qamraydi, panelni oilaning boshlang‘ich mablag‘isiz o‘rnatadi va ortiqcha energiyani kafolatlangan oshirilgan tarif bo‘yicha sotib olib, to‘lovni ijtimoiy kartaga o‘tkazadi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan uyg‘un. Kard, Kluve va Veber inson kapitaliga yo‘naltirilgan faol dasturlar samarasi vaqt o‘tishi bilan oshishini ko‘rsatgan. Bu nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish va ish beruvchi xarajatlarini qoplash takliflarini uzoq muddatli investitsiya sifatida baholashga asos beradi. Banerji va hammualliflar aniqlagan aktiv berishning barqaror samarasi quyosh paneli orqali passiv daromad yaratish g‘oyasining ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Takliflarning xatarlari ham bor. Natijaga bog‘langan kvazibozor shartnomalarida provayderlar natijaga oson erishiluvchi mijozlarni tanlab, og‘ir holatdagilarni chetda qoldirishi mumkin. Buyuk Britaniya tajribasida bu holat «creaming» va «parking» deb nomlangan (Carter & Whitworth, 2015). Shu sababli to‘lov stavkasi nogironlik guruhi va mehnat qobiliyati darajasiga qarab tabaqalashtirilishi kerak. Quyosh paneli mexanizmida tarmoqning qabul qilish imkoniyati, uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish va oshirilgan tarifning fiskal yuki alohida hisoblanishi lozim. Moffitt ko‘rsatgan rag‘bat muammosi nuqtai nazaridan passiv daromad nafaqa miqdorini hisoblashda to‘liq inobatga olinmasligi muhim, aks holda oila aktivdan foydalanishga qiziqmay qoladi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, takliflar samarasi taxminiy hisob-kitob va xalqaro dalillar asosida baholandi. Ularni pilot loyihalarda sinab ko‘rish va natijalarini baholash keyingi tadqiqot vazifasidir.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijasida «aholini ijtimoiy himoya qilish» tushunchasining iqtisodiy mazmuni passiv kompensatsiyadan faol, investitsion himoyaga o‘tish nuqtai nazaridan takomillashtirildi. Ijtimoiy himoya institutlariga davlat, bozor va uy xo‘jaligi munosabatlarini qamrab oluvchi mualliflik ta’rifi berildi.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning 76,2 foizi I va II guruhga mansub bo‘lib, ular bandlikka kirishda eng katta to‘siqlarga duch keladi. Ish beruvchilarning ishga qabul qilish va ijtimoiy xizmat xarajatlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplash hamda kvazibozor asosida uyda ishlash kasblariga o‘qitish bu to‘siqlarni kamaytiradi.

Kambag‘al oilalar xonadoniga quyosh panellari o‘rnatish va ishlab chiqarilgan energiyani xarid qilish oilaga oyiga taxminan 290–507 ming so‘m samara beradi. Bu bir kishilik minimal iste’mol xarajatining 41–71 foiziga teng. Taklif etilgan choralar milliy ijtimoiy himoya tizimini fiskal-passiv shakldan aktiv-investitsion va yashil iqtisodiyotga tayangan shaklga o‘tkazishga xizmat qiladi.

[11] https://www.spot.uz/oz/2025/12/27/social-assistance-package/

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi O‘RQ-641-son Qonuni. (2020, 15-oktabr).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-85-son Farmoni. (2025, 8-may).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-258-son Farmoni. (2025, 26-dekabr).

4. Banerjee, A., Duflo, E., Goldberg, N., Karlan, D., Osei, R., Parienté, W., Shapiro, J., Thuysbaert, B., & Udry, C. (2015). A multifaceted program causes lasting progress for the very poor: Evidence from six countries. Science, 348(6236), 1260799. https://doi.org/10.1126/science.1260799

5. Card, D., Kluve, J., & Weber, A. (2018). What works? A meta analysis of recent active labor market program evaluations. Journal of the European Economic Association, 16(3), 894–931. https://doi.org/10.1093/jeea/jvx028

6. Carter, E., & Whitworth, A. (2015). Creaming and parking in quasi-marketised welfare-to-work schemes: Designed out of or designed in to the UK Work Programme? Journal of Social Policy, 44(2), 277–296. https://doi.org/10.1017/S0047279414000841

7. Friedman, M. (1955). The role of government in education. In R. A. Solo (Ed.), Economics and the public interest (pp. 123–144). Rutgers University Press.

8. Hemerijck, A. (Ed.). (2017). The uses of social investment. Oxford University Press.

9. Hood, C. (1991). A public management for all seasons? Public Administration, 69(1), 3–19. https://doi.org/10.1111/j.1467-9299.1991.tb00779.x

10. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. Journal of Financial Economics, 3(4), 305–360. https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X

11. Le Grand, J. (1991). Quasi-markets and social policy. The Economic Journal, 101(408), 1256–1267. https://doi.org/10.2307/2234441

12. Le Grand, J. (2007). The other invisible hand: Delivering public services through choice and competition. Princeton University Press.

13. Moffitt, R. A. (2002). Welfare programs and labor supply. In A. J. Auerbach & M. Feldstein (Eds.), Handbook of public economics (Vol. 4, pp. 2393–2430). Elsevier. https://doi.org/10.1016/S1573-4420(02)80014-4

14. Morel, N., Palier, B., & Palme, J. (Eds.). (2012). Towards a social investment welfare state? Ideas, policies and challenges. Policy Press.

15. Sherraden, M. (1991). Assets and the poor: A new American welfare policy. M. E. Sharpe.

16. IEA. (2022). Solar energy policy in Uzbekistan: A roadmap. International Energy Agency. https://www.iea.org/reports/solar-energy-policy-in-uzbekistan-a-roadmap

17. Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish, 2025-yil [press-reliz]. https://stat.uz/img/news/izhtimoij-khimoya-lotin_p50370.pdf